



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
X. SULAYMONOVA NOMIDAGI
RESPUBLIKA SUD EKSPERTIZA MARKAZI

O'ZBEKISTON SUD EKSPERTIZASI



Huquqiy, ijtimoiy, ilmiy-amaliy

JURNAL

2024 №2(13)

**O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi
Rayosatining 2022-yil 30-apreldagi 315/5-sod qarori bilan
“O'zbekiston sud-ekspertizasi” ilmiy jurnalni yuridik va
siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori
(DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari
asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsya etilgan ilmiy
nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.**

MUNDARIJA

Tashkulov A.D. Kirish so'zi.....	2
Xalilov A.U. O'zbekistonda sud ekspertrizasini rivojlantirishda amalga oshirilgan islohotlar va bu borada xalqaro hamkorlikning roli.....	4
Saitova N.S. Mahsulotlarda genetik jihatdan o'zgartirilgan organizmlar (GMO)ni huquqiy tartibga solish bo'yicha O'zbekiston va chet davlatlar amaliyoti.....	9
Imomnazarov A.X. Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	22
Eshnazarov M.X. Jinoyat ishlari bo'yicha ekspert xulosasining tarkibiy tuzilishi tahlili.....	34
Ильясова Н.К. Предмет, объекты и задачи почерковедческой экспертизы.....	43
Xasanova D.Y., Kamalov Sh.Sh. O'pkalar pnevmokoniozi: sud-tibbiy ekspert gistolog amaliyotidagi holat.....	47
Samanova F.Z., Karimova D.T. Tolali materiallar va ularidan tayyorlangan buyumlar kriminalistik ekspertrizasining zamonaviy imkoniyatlari.....	51
Ravshanov F.R. Xalqaro tartibotning buzilishi – global konfliktlar asosi sifatida.....	57
Isabayev M., O'zbekiston davlat boshqaruvini nomarkazlashtirishda mahalliy vakillik instituti vakolat va funksiyalarining optimallashuvi.....	63
Hasanov Sh., Siyosiy ziddiyatlarning strukturaviy-funksional tahlili.....	71
Ro'ziyeva G.S. Hozirgi davrda madaniyatga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, tamoyillari, tuzilishi va uni boshqarishni takomillashtirish.....	76
O'lmasxo'jayev Z.A. Maskuralarning davlat va jamiyat xavfsizligiga ta'siri.....	82
Эшмуродов А. Роль духовно-нравственного воспитания в обеспечении моральной безопасности общества.....	89
Bobokulov S.O. Yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallab olish oqibatlari va bu sohada davlat siyosati.....	95
Nasrullaev N. TUIT bright future week – yoshlar uchun ulkan imkoniyat sifatida.....	100
Saidxodjaev S.X. “Xalqaro hamkorlikning sud ekspertrizasini takomillashtirish va rivojlantirishdagi o'rni” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya va unda erishilgan natijalar.....	104

Muassis:

**O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi
Respublika sud ekspertriza markazi**

Bosh muharrir:

Akram XALILOV

Bosh muharrir o'rribbosari:

Uchkun UZAKOV

Mas'ul kotib:

Nuriddin QOLQANOV

Tahrir hay'ati:

Akbar TASHKULOV

Sherzod RABIYEV

Jamshidxon NURITDINOV

Istam ASTANOV

Narzulla JO'RAYEV

Odil MUSAYEV

Eshmuxamad KADIROV

Shuhrat RAXMANOV

Tolibjon ORZIYEV

Saidillaxodja SAIDXODJAYEV

O'ktam SHAKAROV

Nilufar XALILOVA

Nadejda KORABLYOVA

Mas'ul muharrir:

Husan NISHONOV

Dizayner:

Faxriddin RAHIMOV

Sahifalovchi:

Malohat TOSHOVA

“O'zbekiston sud ekspertrizasi” huquqiy, ijtimoiy, ilmiy-amaliy jurnalni

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2021-yil 4-iyunda 1185-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Tahririyat manzili:

100105, Toshkent shahri, Mirobod tumani

Farg'on'a yo'li ko'chasi.

Telefonlar:

(71) 209-11-55 (153 ichki), (93) 171-37-74

web-site: www.sudex.uz

e-mail: info@sudex.uz

facebook.com/sudex.uz

telegram.me/sudex.uz

Jurnal 18.07.2024-yilda bosmaxonaga topshirildi.

Qog'oz bichimi 60x84 1/8. Offset usulida bosildi.

Shartli 6,75 bosma taboq. Buyurtma № 001. Adadi 100.

“Reliable Print” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Qushbegi ko'chasi, 6-uy.

YER UCHASTKALARINI O'ZBOSHIMCHALIK BILAN EGALLAB OLISH OQIBATLARI VA BU SOHADA DAVLAT SIYOSATI

BOBOKULOV
Shoxnazar Ochilovich,
y.f.n., dotsent, "Toshkent irrigatsiya
va qishloq xo'jaligini
mexanizatsiyalash muhandislari
instituti"
milliy tadqiqot universiteti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallab olish oqibatlari hamda ushbu sohada olib borilayotgan davlat siyosati haqida so'z yuritiladi.

Shuningdek, mazkur sohaga oid normativ hujjatlarni tahlil qilish orqali fikr va mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: o'zboshimchalik bilan egalangan yer uchastkasi, ortiqcha egallangan yer uchastkasi, o'zboshimchalik bilan qurilgan imorat.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются последствия самовольного захвата земельных участков, а также проводимая государственная политика в этой сфере.

Также были высказаны мнения и замечания по анализу нормативных документов, относящихся к данной сфере.

Ключевые слова: самовольно занятый земельный участок, излишне занятый земельный участок, самовольно построенное здание.

ANNOTATION

This article examines the consequences of the unauthorized seizure of land, as well as the ongoing state policy in this area.

Opinions and comments were also expressed on the analysis of regulatory documents related to this area.

Key words: an unauthorized occupied land plot, an overly occupied land plot, an unauthorized building.

Mamlakatimizda yer munosabatlari sohasida yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlarini ishonchli tarzda himoya qilishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, yerga oid munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish, normativ-huquqiy hujjatlarni yerning tabiiy resurs sifatidagi xususiyatlarini e'tiborga olgan holda bozor iqtisodiyoti talablariga moslashtirish, uning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish, bunda davlatning yerga doir siyosati asosiy yo'nalishlarini aniq ifodalash, fuqarolarning yer bilan bog'liq huquqlarini kafolatlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 68-moddasida yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir deya mustahkamlab qo'yilgan [1].

Bugungi kunda qonunchilikda uy-joyga ega bo'lish va qurishning qonuniy mexanizmlari mavjud bo'lishiga qaramasdan fuqarolar tomonidan yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallab olish hamda noqonuniy ravishda uy-joy va boshqa binolar qurib olish holatlari mavjud [8].

Amaldagi yer qonunchiligidagi ko'ra, yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallab olish deganda – qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tegishli vakolatlari organning qarorisiz, yer uchastkasi chegarasi joyida belgilanmasdan, yer uchastkalarining planlari (chizmalar) va tavsiflari tuzilmasdan hamda yer uchastkalariga bo'lgan huquq davlat ro'yxatiga olinmasdan yer uchastkalarining egallab olinishi tushuniladi [2].

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 60-moddasi 2-qismida yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallab olish, shu jumladan ushbu yer uchastkalariga nisbatan qonuniy huquqlari mavjud bo'lmagan holda ulardan foydalanish

– fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravari, mansabdor shaxslarga esa – ellik baravari miqdorida jarima solinishiga, ushbu moddaning 3-qismida o'zboshimchalik bilan egallab olingan, ajratilgan yer uchastkasiga tutash bo'lgan va tutash bo'lmagan yer uchastkalarida qurilish ishlarini amalga oshirish – fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravari, mansabdor shaxslarga esa – uch yuz baravari miqdorda jarima solishga sabab bo'lishi hamda huquqbazarlikni birinchi marta sodir etgan shaxs, agar u o'zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkasining qaytarilishini ta'minlasa hamda o'zboshimchalik bilan egallab olishning oqibatlarini bartaraf qilsa, javobgarlikdan ozod etilishi belgilab qo'yilgan [4].

Demak, yer uchastkasini o'zboshimchalik bilan egallab olgan shaxs yer uchastkasi qaytarilishini ta'minlasa, o'zboshimchalik bilan egallab olishni bartaraf etsa, albatta javobgarlikdan ozod etiladi.

Bundan tashqari, milliy qonunchiligidan uy-joyga ega bo'lish va qurishning qonuniy mexanizmlari belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 212-moddasiga asosan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qurilish maqsadlari uchun ajratilmagan yer uchastkalarida, shuningdek, imorat qurish uchun zarur ruxsatnomalar olib olmasdan yoki arxitektura va qurilish normalari hamda qoidalarini jiddiy buzgan holda qurilgan uy-joy, boshqa bino, inshoot yoki o'zga ko'chmas mulk o'zboshimchalik bilan qurilgan imorat hisoblanadi [3].

Amaldagi Yer kodeksining 90-moddasiga ko'ra, yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarrachilar tomonidan amalga oshirilgan yer uchastkalari oldi-sotdisi, ularni hadya qilish, garovga qo'yish (yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqini, shu jumladan kimoshdi savdosi asosida olingan shunday huquqni, shuningdek, yer uchastkasini ijara olish huquqini garovga qo'yish bundan mustasno), yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan ayirboshlash haqiqiy emas deb hisoblanadi. Bunday bitimlarni amalga oshirishda aybdor shaxslar qonunga binoan javobgar bo'ladilar.

O'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalari ularga g'ayriqonuniy ravishda egalik qilingan va foydalanilgan vaqtida qilingan sarf-xarajatlar qoplanmagan tarzda tegishliligiga

ko'ra qaytarilishi Yer kodeksining 91-moddasida belgilab qo'yilgan.

Shu bilan birga, yer uchastkalarini foydalanish uchun yaroqli holatga keltirish, shu jumladan undagi imoratlarni buzish yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallab olgan shaxslar hisobidan amalga oshirilishi belgilangan [2].

Yer kodeksining 91'-moddasida o'zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkasiga, shuningdek, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan, qurilish maqsadlari uchun ajratilmagan yer uchastkasida barpo etilgan har qanday bino va inshootlarga nisbatan mulk huquqini yoki boshqa mulkiy huquqlarni belgilashga yo'l qo'yilmasligi mustahkamlangan.

Shuning bilan birga, yer uchastkasini o'zboshimchalik bilan egallagan, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan, qurilish uchun ajratilmagan yer uchastkasida qonunga xilof qurilish obyektni barpo etgan shaxslar insofli mulkdor deb tan olinmaydi.

O'zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkalaridagi qonunga xilof qurilish obyektlarini suv ta'minoti, oqova suv, elektr, issiqlik enyergiyasi va gaz tarmoqlariga ularash taqiplanadi [2].

Demak, o'zboshimchalik bilan imorat qurgan shaxs unga mulk huquqini ololmaydi. Bu shaxs qurgan imoratini tasarruf etishga – sotish, hadya etish, ijaraga berishga, imoratga nisbatan boshqa bitimlar tuzishga haqli emas.

O'zboshimchalik bilan imorat qurish natijasida huquqlari buzilgan shaxsning yoki tegishli davlat organining da'vosi bilan bunday imorat sud qaroriga binoan imoratni qurgan shaxs tomonidan yoki uning hisobidan buzib tashlanishi belgilab qo'yilgan.

Xulosa qilib aytganda, yer umummilliy boylikdir, xalqimizning hayoti, faoliyati va farovonligining asosi sifatida yerdan oqilona foydalanishimiz va uni asrashimiz zarur. Shu bilan birga, yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallab olganlik uchun javobgarlik muqarrar ekanligini ham unutmasligimiz kerak.

Shuningdek, yer to'g'risidagi qonunchilikning asosiy vazifalari hozirgi va kelajak avlodlarning manfaatlarini ko'zlab yerdan ilmiy asoslangan tarzda, oqilona foydalanish va uni muhofaza qilishni, tuproq unumdorligini tiklash va oshirishni, tabiiy muhitni asrash va yaxshilashni, xo'jalik yuritishning barcha shakllarini teng huquqlilik

asosida rivojlantirish uchun sharoit yaratishni, yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarini himoya qilishni ta'minlash maqsadida yer munosabatlarini tartibga solishdan, shuningdek, bu sohada qonuniylikni mustahkamlash, shu jumladan korrupsiyaga oid huquqbazarliklarning oldini olishdan iborat.

O'zbekiston xalqining o'ziga xos xususiyatlari hamda ilg'or jahon tajribalarini mujassamlashtirgan taraqqiyot modeli negizida kuchli ijtimoiy siyosat yuritish maqsadi ham yotadi [7].

Barchamizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2018-yilning 20-aprel kuni "Fuqarolarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar hamda o'zboshimchalik bilan qurilgan turar joylarga nisbatan mulk huquqini etirof etish bo'yicha bir martalik umudavlat aksiyasini o'tkazish to'g'risida"gi PF-5421-sonli farmon qabul qilingan edi.

Mazkur farmonga asosan respublikamizda minglab o'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga, noqonuniy ravishda qurilgan uy-joylarga nisbatan fuqarolarning mulkiy huquqlari e'tirof etildi [5].

2024-yil 22-fevral kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasi tomonidan "O'zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkalari hamda ularda qurilgan bino va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish to'g'risida"gi qonun loyihasi dastlabki tarzda ko'rib chiqildi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, 2018-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmoniga muvofiq o'tkazilgan bir martalik umumdavlat aksiyasi doirasida 621 ming nafardan ortiq fuqarolarning o'zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkasida tegishli ruxsatnomasiz qurilgan uy-joylariga nisbatan egalik huquqi e'tirof etilib, ularga kadastr hujjatlari rasmiylashtirib berilgan edi. Shunga qaramasdan, bugungi kunga qadar 126 mingdan ortiq fuqarolarning ruxsatnomasiz qurilgan uy-joylarga nisbatan egalikni belgilash masalasi qonuniy yechimini kutmoqda.

Bundan tashqari, ko'plab holatlarda fuqarolarning bog'dorchilik-uzumchilik shirkatlari hududidagi turar joylarga hamda kichik sanoat zonalari hududiga joylashtirilgan tadbirkorlik subyektlarining bino va inshootlariga nisbatan egalik huquqi mavjud emasligi ma'lum.

Shundan kelib chiqib, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorisiz o'zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkasida qurilgan uy-joylar, boshqa bino va inshoot yoki ko'chmas mulk obyektlariga nisbatan huquqni e'tirof etish asoslari va uning aniq tartibini belgilash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Ushbu Qonunning maqsadi o'zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkalari hamda ularda qurilgan bino va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat va quyidagilarga tatbiq etiladi:

2018-yil 1-may kuniga qadar O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashab turgan fuqaroligi bo'limgan shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy qurban holda o'zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkasi hamda unda qurilgan bino va inshootlarga;

2018-yil 1-may kuniga qadar fuqarolar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va rezident yuridik shaxslar tomonidan qonunchilik hujjatlariga muvofiq ajratilgan yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarda ko'rsatilgan maydonдан ortiqcha egallangan yer uchastkasi hamda unda qurilgan bino va inshootlarga;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan tashkil etilgan Ko'chmas mulkka nisbatan huquqni e'tirof etish ishlarini tashkil etish bo'yicha tuman (shahar) komissiyalari tomonidan fuqarolarning o'zboshimchalik bilan qurilgan bino va inshootlarga nisbatan mulk huquqini e'tirof etish mumkin, deb topilgan holatlarga;

2021-yil 8-iyun kuniga qadar tuman (shahar) hokimlari qarori bilan qonunchilik hujjatlariga muvofiq fuqarolar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va rezident yuridik shaxslarga ajratilgan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlash masalasi o'z vaqtida ko'rib chiqilmagan yer uchastkalariga, bundan yer uchastkasida ikki yil mobaynida bino va inshoot qurilmagan yoki qurilishi boshlanmagan hamda

maqsadsiz foydalanilgan holatlar mustasno;

bog'dorchilik va uzumchilik shirkatlari hududidagi turar joylar hamda ular egallagan yer uchastkasiga;

2020-yil 9-martga qadar kichik sanoat zonalari hududiga joylashtirilgan tadbirkorlik subyektlarining bino va inshootlari (yoki ularning qismilari) joylashgan yer uchastkasiga;

xususiy lashtirilgan ko'chmas mulk obyektlari, xususan, bino va inshootlar hamda yakka tartibdagi turar joylar egallagan yer uchastkasiga;

fuqarolar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va rezident yuridik shaxslarning qonunchilikka muvofiq mulk huquqi e'tirof etilgan bino va inshootlari hamda yakka tartibdagi uy-joylari egallagan yer uchastkasiga.

Ushbu qonunning eng ahamiyatli jihatlaridan biri shundaki, o'zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkasi hamda unda qurilgan bino va inshootlarga bo'lgan huquqlar e'tirof etilgan taqdirda, yer uchastkasini o'zboshimchalik bilan egallab olgan shaxslar O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida nazarda tutilgan ma'muriy javobgarlikdan ozod etiladi.

Yer uchastkasi va unda qurilgan bino va inshootga bo'lgan huquqni e'tirof etish qonunda nazarda tutilgan asoslarda va tartibda faqat ijara huquqi, ularda qurilgan bino va inshootlarga mulk huquqi e'tirof etiladi. Bunda ijara muddati yakka tartibdagi uy-joylar egallagan yer uchastkalari uchun to'qson to'qqiz yil, boshqa yer uchastkalari uchun qirq to'qqiz yil etib belgilanadi [6].

Yer uchastkasiga bo'lgan ijara huquqi va unda qurilgan bino va inshootga bo'lgan mulk huquqi Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari qarori bilan e'tirof etiladi.

Bizning fikrimizcha, ushbu qonunning qabul qilinishi fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining o'zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkalariga nisbatan ijara huquqi hamda ularda qurilgan uy-joy, boshqa bino va inshoot yoki ko'chmas mulk obyektlariga nisbatan mulk huquqi rasmiylashtilishi uchun huquqiy asoslar yaratilishiga xizmat qiladi.



ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998.
3. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996.
4. O'zbekiston Respublikasining “Ma'muriy javobgarlik to‘g‘risida”gi kodeksi. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-apreldagi “Fuqarolarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar hamda o‘zboshimchalik bilan qurilgan turar joylarga nisbatan mulk huquqini e’tirof etish bo‘yicha bir martalik umudavlat aksiyasini o‘tkazish to‘g‘risida”gi PF-5421-son Farmoni.
6. Bobokulov Sh. Yer munosabatlari doir davlat siyosatining o‘ziga xos xususiyatlari. Scientific progress volume 3 | issue 2 | 2022 issn: 2181-1601.
7. Altiyev A., Bobokulov Sh., Muqumov A. Yer mulkchiligi barqarorligini huquqiy ta’minlash, uning yer islohotini amalga oshirishdagi roli va ahamiyati. Jamiyat va innovatsiyalar – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue – 02 (2022) / ISSN 2181-1415.
8. Bobokulov Sh. Yer – huquqiy javobgarlikning mustaqil turi sifatida. “Falsafa va huquq” jurnali. 2022/1. 138-140.